

AXSIKENT IRRIGATSIYA TIZIMI TARIXI: QORAXONIYLAR DAVRIDAN HOZIRGI KUNGA QADAR (QIYOSIY TAHLIL)

Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

Namangan Impuls tibbiyot instituti, O‘zbekiston.

Telefon (Telegram): +998933451969

E-mail: tqozoqov@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-7833-1551>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21029825>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axsikent irrigatsiya tizimlari tarixining qoraxoniylar davridan to hozirgi kungacha bo‘lgan holati tahlil qilingan. Unda, Kosonsoy, Axxisoy va Janjalsoylar sug‘oradigan yerlar haqidagi ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, soxta “Yangi Axxi” shahrini suv yuvib ketmaganligi, Sirdaryoning Axsikent uchun ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Axsikent, irrigatsiya, qoraxoniylar, Kosonsoy, Axxisoy, Janjalsoy, Yangi Axxi, Sirdaryo, kema, akveduk, tarixiy manbalar

THE HISTORY OF AKHSIKENT'S IRRIGATION SYSTEM: FROM THE KARAKHANID PERIOD TO THE PRESENT DAY (A COMPARATIVE ANALYSIS)

Annotation: This article examines the major stages in the development of Akhsikent’s irrigation system from the Karakhanid era to the present. It provides information on the agricultural lands irrigated by the Kasansay, Akhsisay, and Janjalsay watercourses. Furthermore, the study demonstrates that the so-called “New Akhsi” was not destroyed by flooding and highlights the important role of the Syr Darya River in the history and development of Akhsikent.

Key words: Akhsikent, irrigation system, Karakhanid period, Kasansay, Akhsisay, Janjalsay, New Akhsi, Syr Darya River, river transport, aqueducts, historical sources.

ИСТОРИЯ ИРРИГАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ АКСЫКЕНТА: ОТ ЭПОХИ КАРАХАНИДОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ (СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ)

Аннотация: В этой статье перечисляются основные события из истории ирригационной системы Ахсыкента от эпохи караханидов до наших период. В нем дается информация о землях, орошаемых Касансойми, Ахсисаями и Джанжалсаями. Кроме того, было установлено, что так называемый “Новый Ахси” не был разрушен наводнением, а также освещена роль реки Сырдарьи в истории и развитии Ахсыкента.

Ключевые слова: Ахсыкент, ирригационная система, эпоха Караханидов, Касансай, Ахсисай, Джанжалсай, Новый Ахси, река Сырдарья, речной транспорт, акведуки, исторические источники

Turkiston mintaqasidagi eng yirik daryolardan biri bo‘lgan Sirdaryo qadimdan, xususan, Qoraxoniylar davrida ham Farg‘ona vodiysining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi joylashuvi, shaharsozlik madaniyati va sug‘orma dehqonchilik tizimining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Daryo Tan-Shan tog‘laridan boshlanuvchi Norin hamda Qoradaryolarning qo‘shilishidan hosil bo‘lib, Farg‘ona vodiysi bo‘ylab Sirdaryo nomi bilan davom etadi. Qadimgi yunon va arab manbalarida mazkur daryo Yaksart (Jaxartes), Sayhun (سيحون) nomlari bilan tilga olingan.

Daryoning umumiy uzunligi taxminan 2 212 kmni tashkil etadi. Uning yirik tarmog‘i bo‘lmish Norin daryosining boshlanishidan hisobga olinganida esa, Sirdaryoning umumiy uzunligi 3 000 kmdan ortiqroqni tashkil qiladi. Daryo havzasining maydoni 780 ming km² dan ziyod bo‘lib, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Tojikiston va Qozog‘iston hududlarini qamrab oladi. Sirdaryo suvining asosiy

qismi tog‘ muzliklari va qor suvlari hisobiga shakllanadi. Shu sababli daryo suv rejimi bahor va yoz oylarida ko‘tarilib, kuz va qish fasllarida nisbatan kamayadi.

Farg‘ona vodiysi hududida Sirdaryoga quyiladigan yirik irmoqlar qatoriga Norin, Qoradaryo, Kosonsoy, G‘ovasoy, Isfayramsoy, So‘x, Shohimardonsoy, Isfara, Chodaksoy, Janjalsoy va boshqa ko‘plab tog‘ daryolari kiradi. Ularning aksariyati vodiyni qadimgi sug‘orish tarmoqlari shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, Kosonsoy va Axxisoy suv tizimlari o‘rta asrlarda Axsikent vohasining iqtisodiy hayotini ta‘minlovchi asosiy gidrotexnik manbalardan hisoblangan.

Daryoning shimolida joylashgan Axsikent shahri IX–XIII asrlarda Sharqiy Qoraxoniylar davlatining muhim siyosiy va iqtisodiy markazlaridan biri bo‘lgan. Shaharning rivojlanishi ko‘p jihatdan Sirdaryo bilan bog‘liq edi. Birinchidan, daryo va uning irmoqlari orqali shahar atrofida keng sug‘orma yerlar o‘zlashtirilgan. Ikkinchidan, Sirdaryo savdo va transport kommunikatsiyasining muhim bo‘g‘ini vazifasini bajargan. Yozma manbalar shahar hududida daryo kechuvlari, qayiqlar va suv orqali yuk tashish amaliyoti mavjud bo‘lganligidan guvohlik beradi. Bu holat Axsikentning Farg‘ona vodiysi, Choch, Ustrushona hamda Movarounnahrning boshqa shaharlari bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlanishi uchun omil bo‘lib xizmat qilgan.

Sirdaryoning Axsikent uchun ahamiyati faqat yer usti suvlari bilan cheklanmagan. Arxeologik tadqiqotlar shahar atrofida yerosti suvlari va gidrotexnik inshootlardan foydalanilganligini ham ko‘rsatmoqda. Ayrim tadqiqotchilar Axsikent vohasida yerosti suv yo‘llari hamda suv taqsimlash tizimlari mavjud bo‘lganligini qayd etadilar. Bu esa shahar aholisini ichimlik suvi bilan ta‘minlash hamda bog‘dorchilik va dehqonchilikni rivojlantirish imkonini bergan.

Axsikent atrofining tabiiy landshafti ham uning taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratgan. Sersuv daryo va soylarning mavjudligi bu yerda asrlar davomida

shakllangan o‘troq sug‘orma dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun omil bo‘lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, ayrim vaqtlarda daryo toshqinlari ba‘zan aholi manzilgohlari va qishloq xo‘jaligi yerlariga zarar keltirgan bo‘lsa-da, biroq, bu yerlarda qad rostlagan aholi maskanlarini to‘liq yuvilib, yo‘q bo‘lib ketishiga olib kelmagan.

Qoraxoniylar davri manbalarida Sirdaryoning ahamiyati haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Arab geograflari va sayyohlari, jumladan Ibn Havqal, al-Muqaddasiy va al-Istaxriy asarlarida Farg‘onaning sersuv vohalari, daryolari va sug‘orish tarmoqlari haqida, shuningdek, “Boburnoma”, “Tarixi Rashidiy”, “Shayboniynoma” va boshqa asarlarda esa, daryoning Axsikent uchun strategik ahamiyati, daryo transporti borasida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Keyingi davr mualliflari ham Axsikent va uning atrofidagi suv inshootlarini mintaqaning iqtisodiy qudrati bilan bog‘lab tavsiflaganlar.

Shu bois, Sirdaryo va uning irmoqlarini o‘rganish nafaqat gidrologik nuqtayi nazardan, balki, Axsikentning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini anglash uchun ham muhim ahamiyatga ega. Daryo havzasining tabiiy xususiyatlari, sug‘orish tarmoqlari, gidrotexnik inshootlar va suvdan foydalanish an‘analarini tadqiq etish, Farg‘onaning Qoraxoniylar davri xo‘jalik tizimini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida Axsikentning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida tutgan o‘rnini yanada to‘laroq yoritish imkonini beradi.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida: “...Sayhun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhur, sharq va shimoliy tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar, Xo‘jandning shimoli, Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag‘a mashhur, o‘tub yana shimolg‘a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xeyli quyiroq bu daryo tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas”, deydi. Asardagi ushbu jumlaning keyingi davr tadqiqotchilari Sirdaryo qo‘shni Qozog‘iston Respublikasidagi Turkiston shahridan o‘tib, butunlay qum ichida singib yo‘q bo‘lib ketgan, deya noto‘g‘ri

talqin qilganlar: “Bu davrning boshqa manbalarida ham Sirdaryoning qumda yo‘qolishi haqida ma’lumotlar uchraydi” [7, b.5]. Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi ilmiy xodimlarining ilmiy tadqiqotlari va ekspeditsiyalari natijasida bu fikr xato ekanligi tasdiqlandi.

Ya’ni, Sirdaryo Qoraxoniylar davrida va undan keyin ham suvini Orol dengiziga quyganligi aniqlandi. Asardagi “tamom qumg‘a singar, hech daryog‘a qotilmas” jumlasini boshqacharoq, ya’ni, “biron bir daryoga qo‘shilmagan holda, butunlay qumlar sahrosi ichiga kirib ketadi”, deb tushunmoq darkor. Qomusiy bilimlar sohibi bo‘lgan Bobur Mirzo geografik bilimlardan ham yaxshigina xabardor bo‘lgan. Dunyodagi ko‘plab mashhur daryolar boshqa daryolarga qo‘shilib ketganligini bilgani bois ham, bu yerda u Sirdaryoni biron bir daryoga qo‘shilmasligini, mustaqil tarzda davom etishini yozmoqda. Yer yuzidagi ko‘plab yirik daryolarning boshqa daryolarga irmoq sifatida qo‘shilib ketganligini quyidagidan ham bilish mumkin: masalan, Shimoliy Amerikadagi Missuri uzunligi 3767 km.ni tashkil etsada, 3730 km.lik Missisipining irmog‘i hisoblanadi, Sibirdagi Irtish daryosining uzunligi 4248 km bo‘lsada, Ob daryosiga (uzunligi 3650 km.) irmoq bo‘lib qo‘shilib ketadi, Sibirning yana bir yirik daryosi Angor ham Yeniseyga irmoq sifatida qo‘shilgan, shuningdek, Kama daryosi Volgaga, Tobol esa Irtishga, Panj va Vahsh daryolari ham Amudaryoga, Afrikadagi Benue daryosi esa, Niger daryosiga qo‘shilib ketadi. Shu bois ham asar muallifi Sayhun hech bir daryoga qo‘shilmasligini alohida ta’kidlamoqda.

Endi “tamom qumg‘a singar” iborasini esa, qumliklardan iborat hudud ichiga kirib ketadi, deb tushunmoq darkor. Buning isboti esa, quyidagicha: temuriylar davrida Orol dengizi atrofining asosiy qismi cho‘llar bilan o‘ralgan edi. Taxminan 70–80% sohil qirg‘og‘ini cho‘l yoki yarim cho‘l tabiiy zonalariga to‘g‘ri kelgan.

Geografik nuqtayi nazardan:

-Sharq va janubi-sharq tomonida Qizilqum cho‘li;

- Janub va janubi-g‘arbida Qoraqum cho‘li;
- G‘arbida esa, Usturt platosi;
- Shimoli va shimoli-sharqida Orolbo‘yi yarim cho‘l hududlari joylashgan.

Faqat ikkita katta daryo deltalarigina cho‘llandan iborat emas: 1) Amudaryo deltasi — qamishzorlar, ko‘llar, to‘qayzorlar va sug‘orma yerlar; 2) Sirdaryo deltasi-botqoqliklar, qamishzorlar va ko‘llar tizimi.

Shuning uchun dengiz atrofidagi yashil hududlar asosan shu ikki delta bilan cheklangan bo‘lib, qolgan sohillarning katta qismi tabiiy cho‘l va yarim cho‘l landshaftlaridan iborat bo‘lgan.

Qoraxoniylar davri manbalarining deyarli barchasida Sayhun daryosining Orol dengizigacha yetib borganligi ma’lumotlar mavjud. Misol uchun, Istaxriy: “Shosh daryosi (Sirdaryo)dan qayiqlar qatnaydi. O‘zani O‘zgand chegarasidagi turklar o‘lkasidan chiqadi. Keyin, unga Xurshob (Qurshob), O‘sh, Quva, Jidg‘il (Chotqol) va boshqa daryolar qo‘shilib, katta daryoga aylanadi. Axsikat va Banokatdan o‘tib, Farobga oqadi. Sabrandan bir farsax keyin turklar tomonidagi Hadisa qishlog‘i joylashgan dashtda oqadi. Hadisa qishlog‘idan ikki farsax o‘tib, Xorazm kichik dengiziga quyiladi” [10, b.178]. Ibn Havqal Koson shahri yonidan oqib o‘tuvchi, bugungi kunda Kosonsoy nomi bilan atalgan Sirdaryoning irmog‘i X asrda Axsikat daryosi, deb atalganini yozgan: “Koson shahri darvozasi yonidan Axsikat daryosi (Kosonsoy) oqib o‘tgan” [8, b.285].

Ayni damda Istaxriy Qoraxoniylar davri Axsikatining ichki shahristonining Bujayr, Mardaqlsha (Mardikush), Koson, Jom‘e va Rahana (Rohoba), deb nomlangan beshta darvozasi borligini, rabodida esa, oqar suv va hovuzlari ko‘pligi hamda har bir darvozasi qalin bo‘stonlar va ariqlarga olib chiqishi ma’lumotini bergan edi [10, b.179].

Shuningdek, Qoraxoniylardan keyingi davr tarixchisi, XIV asrning mashhur olimlaridan “Muqaddima” asarining muallifi Ibn Xaldun ham o‘z davrida Sayhunning Orol dengiziga quyilishini quyidagicha izohlagan edi: “Turklar

yurtidan oqib keladigan Farg‘ona va Toshkent (Shosh) daryosi, ya’ni, Sirdaryo ham shu ko‘lga, ya’ni, Orol dengiziga quyiladi” [7, b.137].

Yana shuni ham unutmashlik darkorki, Bobur yashab o‘tgan davrdan keyingi olimlar ham asarlarida mazkur daryoning Orol dengiziga quyilishiga guvohlik berib o‘tganlar: “Sayhun daryosi ayni damda Xo‘jand yoki Shohruxiya daryosi, deb ham yodga olinadi. Qorategin tog‘laridan boshlanib, Xorazm (Orol) dengiziga quyiladi. Ba’zan esa, qishda misli Jayhundek qattiq muzlaydi. Ustidan qo‘shin va karvonlar bemalol o‘tishi mumkin. Sayhun daryosi Xorazm ko‘liga quyilgach, Jayhun bilan birgalikda Xazar (Kaspiy) dengiziga quyiladi” [13, b.96]. Buning boisi, avvallari Amudaryoning O‘zboy, deb atalgan irmog‘i daryo suvining bir qismini Kaspiyga quyib, Orol va Kaspiyning suv yo‘li orqali bog‘lanishiga sabab bo‘lganligida edi. Biroq, oradan vaqtlar o‘tib, bu irmoq qurishga yuz tutadi. Tarixchi Mahmud bin Vali Amudaryo Kaspiyga suvini quymay qo‘yganidan (1614—1615 yy.) keyin Ko‘hna Urganch shahri inqirozga yuz tutib, aholisi Xivaga ko‘chganligini yozgan [13, b.19]. Bu hol yuqorida nomi keltirilgan Irmoqning qurishi oqibatida sodir bo‘lgan edi.

Xiva xoni Abulg‘ozixon buning tasdig‘i sifatida “Men tug‘ilishimdan 30 yil avval, Amudaryo o‘zanini o‘zgartirib, Sir (Orol) dengiziga quya boshlagan. Shu sababli Urganch xarob bo‘ldi”, deya yozgan edi. Shuningdek, Abulg‘ozixon hojilar Amudaryo orqali Ko‘hna Urganchga, undan Mang‘ishloqqa (Mangistau viloyati, Qozog‘iston-T.Q.), keyin esa, Shirvon (Ozarbayjon) va Turkiya orqali haj marosimi adosiga borganliklarini bayon etgan [4, b.151, 167].

Sayyid Muhammad Tohir ibn Abul Qosim 1640-yil atrofida yozib tugatgan mashhur “Ajoyib at-tabaqot” asarida “Sayhun (Sirdaryo) O‘zgand va Farg‘ona tomondan kelib, Xo‘jand (tomonga) oqadi. Bir qancha irmoqlarni olgandan so‘ng, Xorazm ko‘liga o‘tadi”, deya yuqoridagi olimlarning fikrlarini tasdiqlagan [16, b.200].

Tarixiy manbalarning guvohligiga ko‘ra, kemalar yo‘nalishi quyidagicha bo‘lgan: **Kemaboshi, Qoradaryo (Norin tumani)** - Axsikent – Xo‘jand – Shohruxiya –Faroba-Sabron-Orol dengizi.

Orol dengizidan esa: 1)Amudaryo - Axxisak (Turkmaniston) – Termiz; 2)Amudaryo – O‘zboy daryosi – Ko‘hna Urganch – Mang‘ishloq - Kaspiy dengizi – Shirvon (Ozarbayjon), usmoniylar davlati (Turkiya).

Sharqshunos olim, akademik V. Bartold ham Qoraxoniylar davri manbalarida ko‘rsatilganidek, Farg‘onaning shimoliy hududlari asosan Kosonsoy suvlari bilan sug‘orilganligi, Axsikent rabodida ko‘plab ariq va hovuzlar bo‘lganligi, Bobur temuriylar davridagi mustahkam qo‘rg‘on, deya tasvirlagan Axxi shahriga ham suv yana o‘sha Kosonsoy daryosidan kelganligini ma’lumot sifatida keltrib o‘tadi [5, b.221].

Qoraxoniylar davridan to XIX asr oxirlarigacha bo‘lgan manbalarda Axsikentga yo‘l daryoning chap qirg‘og‘idan kelganligi yozilgan. Buni bugungi tadqiqotchilar ham tasdiqlaydilar: “Havoqanddan cho‘l orqali 7 farsax yo‘l yurib, Axsikentga kelingan. U yerda esa, daryodan o‘tib, Axsikentga kirilgan” [15, b.123,124].

Axsikent irrigatsiya tizimi masalasida avvalo “Boburnoma”ga murojaat qilish ma’qul ish sanaladi. Unda: “Axxi suvi Kosondin kelur” [6, b.63], deyilgan. Agar yer osti suv yo‘li nazarda tutilsa, bu ham Eski Axxi hududidan topilgan. Ya’ni, Kosonsoydan yer osti sopol quvurlari orqali Axsikentga suv olib kelingani barchaga ma’lum. Agar-da, yer usti suvlari xususida fikr yuritiladigan bo‘lsa ham, Kosonsoydan Axxisoy arig‘i orqali suv to‘g‘ri Axsikent (Eski Axxi)ga olib kelinganligiga tarixiy manbalar va XIX asr oxiri XX boshlarida yevropalik olimlar tomonidan chizilgan xaritalar shohidlik bermoqda.

Taniqli olim Yo‘lchi Qosimov Axsikent arxeologiyasi borasidagi izlanishlarida bu yerdan topilgan yerosti suv inshooti haqida ma’lumotlarni berib o‘tgan edi. Olim manzilgohda qazilma ishlarini olib borish bilan birgalikda,

Axsikentning shimoliy qismidagi aholi xonadonlaridan yerosti sopol quvurlarining qoldiklarini ham topib o‘rgandi: “...70-80 yillarda ushbu satrlar muallifi (Yo‘lchi Qosimov-T.Q.) arxeolog olimlar I. Ahrorov va A. Muhammadjonovlarning maslahatlari asosida Axsikent suv yulini topish va qazish ishlari bilan shug‘ullanib ko‘rdi. Qazishmalar vaqtida “O‘zbekiston” va “Sharq yulduzi” kolxozlari territoriyasida Kosonsondan yerosti opqali suv olib kelinganligi aniqlandi. Uning noyob namunalari topildi. Bu irrigatsion inshoot ham Axsikentda ishlab chiqilgan g‘oyatda pishiq g‘ishtlardan tunnel usulida qurilgan. Lenin xozirgacha suv yulining bosh qismi — suv tindirgich topilgani yo‘q. Taxminan 15-16 kilometr uzunlikka ega bo‘lgan mazkur vodoprovod namunalari boshqa yerlarda ham topilmoqda. Lekin, ularning hech biri qurilish strukturasi, texnikasi, shakli va noyob ishlanishi jihatidan Axsikent vodoprovodiga sira o‘xshamaydi. Vodoprovod izlarining namunalari va sopol truba qoldiqlari xarobaning yerosti qismida saqlanib qolgan” [12, b.70,71].

2018-2018 yillarda Axsikent manzilgohidan topilgan yerosti suv inshootlari muhandislik yo‘li bilan konservatsiya qilinib, turist va ziyoratchilar uchun muhim obyektga aylantirildi.

Shu o‘rinda Y.Qosimov hozirga qadar xalq o‘rtasida saqlanib qolgan bir rivoyatni ham eslatib o‘tadi. Ya’ni, qachonlardir Axsikentga yovlar hujum qilganligi, lekin, shahar aholisi uzoq vaqt qo‘rg‘onni himoya qilib, taslim bo‘lmaganligi, alaoqibat, bir sotqin ayol yerosti suv yo‘lini ko‘rsatib berganligi va dushman uni axtarib, topib, shahar suv ta‘minotini izdan chiqarganligini yozadi. Rivoyatga ko‘ra, suv yo‘lining yuqori qismidagi suv tindirgich orqali quvurga somon oqizilib, shahar aholisi suvsizlikka duchor qilinib, taslim etiladi. Arestotel “Afsonalar – haqiqatning siniqlaridir”, degan edi.

Mutafakkir olim Ishoqxon Ibrat ham Eski Axsi yodgorligidagi yerosti suv inshootlari XX asr boshlarida ham ko‘zga tashlanib turishini bayon etgan edi:

“...Yer tagidin yuradurg‘on suv qubirlari ko‘p taajjublik nimarsalar hozir ham ko‘rinib turadur”[18].

Axsikentning mo‘g‘ullar vayron qilganligi haqidagi cho‘pchakni, shuningdek, “Temuriylar davri Axsikenti” yoki “Yangi Axsikent”, degan soxta atamalarni birinchi bo‘lib, Namangan o‘lkashunoslik muzeyi xodimi bo‘lgan Yuriy Georgiyevich Chulanov ilk bor XX asrning 50-yillari oxirlarida fanga olib kirib, “ilmiy kashfiyot” qilgan edi [17, b.197-206]. Bungacha asarlarda “Temuriylar davri Axsikenti” yoki “Yangi Axsikent”, degan so‘z yoki temuriylar shu nomdagi shahar qurganligi masalasi qayd etilmagan.

1933-yilda tug‘ilgan Yuriy Georgiyevich Chulanov, 1957-yili Leningrad universitetini tamomlab, Namangan viloyat o‘lkashunoslik muzeyiga ishga yuborilib, bu yerda 1957-1959 yillar oralig‘ida ishlaydi xolos. Ammo, shu qisqa davrda tarixni “ag‘dar-to‘ntar” qiladigan g‘oyalarni o‘rtaga tashlashga ulgurdi.

1958-yili “К истории города Ахсыкета” nomli va 1963-yil “Советская археология” jurnalining 3-sonidagi “Городище Ахсыкет” nomli maqolalarida ilk bor “Yangi Axsikent” nazariyasini e‘lon qiladi. Yu. G. Chulanov Eski Aysi yodgorligini ko‘zdan kechirar ekan, bu yerda temuriylar davriga oid ashyolar topilmayotganligini, shu sababli ham shahar temuriylargacha bo‘lgan davrda, aniqrog‘i XIII asr boshlarida vayron bo‘lgan bo‘lishi kerak, degan taxminni olg‘a surib, temuriylar poytaxti Axsikent qayerda joylashganligini izlab topish g‘oyasini o‘rtaga tashlaydi. Butun chalkashlik shundan so‘ng boshlandi.

Keyingi arxeologlar Eski Axsini mo‘g‘ullar vayron qilgan, uni temuriylar davriga aloqasi yo‘q, sababi u yerdan XIV-XVII asrlarga oid moddiy ashyolar topilmayapti, deya o‘z da‘volarini olg‘a surdilar. Bu “ilmiy xulosa” merosi ularga ustozlari Yu.G.Chulanovdan qolgan edi. Vaholanki, XIX asr oxirlaridan XX asrning 50 - yillarigacha Axsikentni o‘rgangan olimlarning hammasi Eski Axsidan temuriylar davriga oid ashyolarni ham topib, o‘rganishgan.

Asosi yo‘q taxminlardan keyin “Temuriylar davri Axsikenti”, degan soxta atama paydo bo‘ldi. Achinarlisi, shuning ortidan temuriy Umarshayx Mirzo hozirgi yodgorlik o‘rnida bo‘lgan qadimiy Axsikent shahrini emas, qandaydir utopik, taxminlarga ko‘ra, undan 8 km g‘arbda Axsi qishlog‘i o‘rnida “Yangi Axsi” nomli shaharni qurib, poytaxt qilganligi to‘qib chiqarildi. Mana shu fikrning o‘zi Sharqiy qoraxoniylar davlati, umuman Farg‘ona vodiysining XII-XIII asrlar tarixini mutlaqo noto‘g‘ri talqinini yuzaga keltirib, soxta tarix yaratilishiga asos bo‘ladi. Mazkur taxmin asosida to‘qilgan tarixni asoslash uchun ko‘pdan ko‘p yolg‘onlar to‘qildi.

Keyinchalik bu ishga yozuvchi, publitsist, blogger, san’atkor va hatto bir vaqtlar viloyatdagi markaziy jomye masjidida imomlik qilgan diniy ulamolar ham aralashib, masalani umuman chalkashtirib yubordilar. To‘raqo‘rg‘on tumanining hozirgi Axsi qishlog‘i o‘rnida “Temuriylar davri Axsikenti” bo‘lgan, deya, “Axsi sayyidlari muzeyi” bunyod etildi. Ammo biron bir manbada mazkur qishloq o‘rnida temuriylar shahar qurganligi va u yerda bironta mashhur sayyidzoda o‘tganligi bayon etilgan emas. Shuningdek, soxta kashfiyotchi daryo bugungi kunda o‘z o‘zanidan 500-800 metrgacha surilib kelib, qal’a o‘rnashgan joylarni yuvib tashlaganligini, uning o‘rnida esa Axsi nomi bilan kichkina qishloq qolganligini ta’kidlagan. Aslida qurilmagan “Yangi Axsi”ni suv yuvib ketganligi ham tarixiy cho‘pchakdan bir parcha xolos.

Yu. Chulanov o‘ylab topgan “Yangi Axsi”ga Kosonsoy suvini olib o‘tish mumkinmi? Axir orada to‘la Janjalsoy oqmoqda-ku! Fransuz olimi Pyer Buast aytganidek, “Haqiqiy bilimning manbasi faktlarda” bo‘lib, taxmin yoki tavakkal bilan tarix yaratilmaydi. Shu bois, oxirgi yillarda Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi ilmiy xodimlari, mutaxassis irrigator olimlar bilan hamkorlikda mazkur masala ustida fundamental tadqiqotlar olib bordilar. Natijada, shaharning irrigatsiya tarmoqlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy manbalarga qiyosan tahlil etildi. Unga ko‘ra: Janjalsoy ustidan Kosonsoydan suv oluvchi bironta suv o‘zani

tabiiy holatda mazkur soyning ustidan Aysi qishlog‘i tomoniga o‘z potensial energiyasi bilan oqa olmasligi, faqatgina akveduk (ko‘tarma nova – suv o‘tkazgich-T.Q.) orqaligina o‘tishi mumkinligi, Aysi va Fayzibod (Janjal) qishloqlari esa, tabiiy ravishda Janjalsoy suvi bilan ta‘minlanganligi, 1940-yil mazkur hududdan Shimoliy Farg‘ona kanali qazib, ishga tushirilganidan keyingina ushbu qishloqlar Shimoliy Farg‘ona kanalidan chiqarilgan ariqlar vositasida suv bilan ta‘minlanganligi ilmiy xulosasi berildi [20].

Oxirgi davrlarda irrigatsiya sohasi olimlarining tegishli xulosalarisiz hudud suv ta‘minoti tizimlari to‘g‘risida noto‘g‘ri ma‘lumotlar berilgan risola va maqolalar ham ko‘zga tashlanadi. Masalan, mualliflar jamoasi tomonidan insho etilgan “Fayziobod fayzlari” kitobida ham xuddi shu holni kuzatish mumkin. “...Qishloqning sharq tarafida shimoldan janub tomonga oquvchi Janjalsoy o‘tgan.Bahorda yuz beradigan toshqin paytlari soyda 3000 m³ gacha suv oqqan” [1, b.55]. Aql bovar qilmaydigan bu suv hajmi haqida yozishdan avval, soha mutaxassislari bilan maslahatlashish ayni muddao bo‘lur edi.

Shimoliy Farg‘ona kanalining qurilishi Farg‘ona vodiysi irrigatsiya inshootlari tarixidagi muhim voqealardan biri sanaladi. O‘zbekiston SSR XKS va O‘zbekiston Kommunistik Partiyasi (b) Markaziy Komiteti 1940-yilning 20 yanvarida Shimoliy Farg‘ona kanalini qurish to‘g‘risidagi qarorini e‘lon qildi. O‘sha yili 14 fevraldan esa, qurilish ishlari boshlab yuborildi. Qurilish ishlariga rahbar etib, A. Mo‘minov tayinlandi. Kanalning umumiy uzunligi 162,5 km bo‘lib, shundan 144 km O‘zbekiston hududidan 18,5 km esa, Tojikiston hududidan o‘tadigan bo‘ldi. Kanal qurilishi uchun qazib chiqarilgan 5,9 mln³ tuproq ishlari asosan qo‘l kuchi bilan bajarildi. Buning uchun 69,5 ming kolxozchi, 652 nafar texnik-muhandislar jalb qilindi. Ushbu suv inshootining qurilishi bilan O‘zbekiston hududida 63 242 ga yerni sug‘orish imkoniyati paydo bo‘ldi. Kanalning qurilishi jarayonida ayni jamda 6 ta akveduk-ko‘tarma suv yo‘li bunyod etishga to‘g‘ri keldi. Kanalning 69 - km.da suv sarfi 28,5 m³/sek bo‘lgan Janjalsoy ustidan kanalni

olib o‘tish uchun temirbetonli akveduk qurishga to‘g‘ri keldi [9, b.163-164]. Sirdaryoga quyiladigan Janjalsoyda 3000 m³ gacha suvning oqishi mutlaqo tuturuqsiz va kulgilidir.

1940-yil mazkur hududdan Shimoliy Farg‘ona kanalining qazib, ishga tushirilishi oqibatida Axsi va Janjal qishloqlari Shimoliy Farg‘ona kanalidan chiqarilgan ariqlar vositasida suv bilan ta‘minlanadigan bo‘ldi.

Axisoy orqali To‘raqo‘rg‘on janubi, xususan, Axsikent atrofi hududlarining suv bilan ta‘minlash masalasi faqatgina Shimoliy Farg‘ona kanalining ishga tushirilishi sababi bilangina o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Demak, 1940-yilgacha mazkur hududlar aynan Axisoy suvi bilan sug‘orilgan. Hozirgi Janjal va Axsi qishloqlariga ushbu suv qadimda ham, hozirda yetib bormagan [2, b.9-11].

Tarixga nazar tashlasak, suv ta‘minoti, suv inshootlarining joylashishi qadimgi shaharlar va davlatlarning paydo bo‘lishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan hodisa hisoblanadi. “Boburnoma”da: “Axsi suvi Kosondin kelur”, deyilgan. Umuman olganda, nafaqat Axsikent, balki, asrlar davomida To‘raqo‘rg‘on tumanining deyarli janubiy hududlari, Janjalsoy va Kosonsoy oralig‘i aholi maskanlari Kosonsoydan suv oluvchi Axsiariq suvi bilan sug‘orilgan. So‘nggi yillarda Axsikent xalqaro ilmiy tadqiqot jamoat birlashmasi ilmiy xodimlari, mutaxassis irrigator olimlar bilan hamkorlikda mazkur masala ustida fundamental tadqiqotlar olib borib, bu boradagi chalkashliklarga barham berdilar. Natijada, hududning irrigatsiya tarmoqlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar tarixiy manbalarga qiyosan tahlil etildi. Unga ko‘ra: Axsi va Fayziobod (Janjal) qishloqlari qadimdan tabiiy ravishda Janjalsoy suvi bilan ta‘minlanganligi, Axsiariq suvi u tomonlarga o‘ta olmasligining ilmiy xulosasi berildi [11, b.100].

Afsonaviy “Yangi Axsi” nazariyotchilari g‘oyaviy ustozlari Yu. Chulanovga sodiq qolgan holda, shaharning ancha qismini daryo yuvib ketganligi da‘vosini qiladilar. Shu bilan birga, u holda daryo nega “Yangi Axsi” dan oldin keluvchi “Eski Axsi” yodgorligini yuvib ketmadi, degan savolga: “Eski Axsidan o‘tayotgan

Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘i qattiq toshsimon qatlamlardan tashkil topganligi uchun suv yuvib ketolmagan. Yangi Axsida esa, Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan tuproq qatlamlari cho‘kindi tog‘ jinslaridan tashkil topganligi munosabati tufayli, uning maydonini Sirdaryo yuvib ketgan”, deb javob beradilar [14].

Biroq, bu borada irrigatsiya sohasi olimlari Sirdaryoning XIX asr o‘rtalaridan to hozirgacha bo‘lgan davrdagi gidrologik xususiyatlari, daryodagi tuproq tarkibi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, asosli ilmiy xulosalarni ma’lum qildilar. “Yanglish fikrlar doimo o‘zini-o‘zi inkor etadi. Haqiqat bobida esa, unday bo‘lmaydi”, deydi K.Gelvetsiy. Natijada, “Yangi Aysi” to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarixiy haqiqatga zid bo‘lganligi bois ham chalkashliklarni o‘zida namoyon qilaveradi.

Tadqiqotlarda Jomasho‘y ko‘prigidan 210 m quyida joylashgan Kal gidrologik suv o‘lchash posti hamda Markaziy davlat arxividagi Sirdaryoning toshqini bilan bog‘liq ma’lumotlardan foydalanildi.

Olimlarning xulosalari:

- Kal gidropostning 100-yillik ma’lumotlari tahlili natijasi shuni ko‘rsatdiki, Sirdaryoda suv sarfi 1959-yil 2780 m³/s; 1966-yil 3270 m³/s; 1969-yil 4270 m³/s tashkil etgan;

- Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan “Yangi Aysi”ning uzunligi 1 km. eni 800 metrgacha bo‘lgan qismini daryo yuvib ketgan, deb taxminiy xulosa berilganligi ilmiy jihatdan asossizdir. Buning uchun Sirdaryoning suv sarfi 35 000 m³/s ni tashkil etishi lozim bo‘ladi. Vaholanki, daryodagi eng yuqori suv sarfi 1969-yilda kuzatilgan bo‘lib, 4270 m³/s ni tashkil etgan. Agarda daryoda suvning sarfi 35 000 m³/s ni tashkil etgan holat ro‘y bersa, u holda Farg‘ona vodiysining qator tuman va shaharlarini ham suv bosgan bo‘lar edi. Biroq, Farg‘ona vodiysi irrigatsiya tarixida bunday holat sodir bo‘lmagan;

- Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi Axsikent (Eski Axsi) manzilgohining daryoga tutash tuproq qatlami bilan 7-8 km. masofadagi Yangi Axsi (Axsi qishlog‘i)ning daryoga tutash bo‘lgan qismi yer qatlamining tuproq tarkibi bir xil. Ya’ni, 0,7-0,9 gruntlardan tashkil topgan. Ya’ni, “Yangi Axsi” daryo deformatsiyasiga uchragan bo‘lsa, tabiiy ravishda bu holat Eski Axsida ham yuz berishi lozim edi;

- “Yangi Axsi” shahrini daryo deformatsiyasi (yuvilib ketishi)ga uchraganligi haqidagi ma’lumotlar ushbu soha mutaxassislari tomonidan berilmagan;

- Axsi (Yangi Axsi) va Fayziobod (Janjal) qishloqlarining suv bilan ta’minlanishida Kosonsoydan keladigan Axsi arig‘ining hech qanday aloqasi yo‘q. Ya’ni, Axsi qishlog‘i (Yangi Axsi)ga Kosonsoydan biron bir ariq yoki kanal orqali olib kelish mumkin emas va samarasizdir. Bu ikkala qishloq joylashgan hududning suv ta’minoti Shimoliy Farg‘ona kanali (1940 yil) qurilgunga qadar, Janjalsoy soyidan amalga oshirilgan. Negaki, Janjalsoyning o‘ng qirg‘og‘i balandlik sari ketganligi bois, chap qirg‘og‘idagi Kosonsoydan suv oluvchi Axsi arig‘i o‘zining potensial energiyasi bilan Janjalsoyning u tomoniga o‘tmaydi;

- Namangan viloyatidagi “Axsikent” tarixiy-madaniy yodgorlik hududini har tomonlama chuqur o‘rganish borasida kartografiya va geoinformatika yuzasidan hududni dengiz sathidan mutloq balandligini aniqlash uchun DEM (Digital Elevation Model) kosmik surati yordamida balandlik gorizontallari bo‘yicha elektron kartasi yaratildi. Natijalariga ko‘ra, o‘rganilayotgan hudud balandligi shimoldan janubga qarab 800 azimut bilan nishablanib boradi va nishablik Sirdaryo daryosi o‘zanigacha tushadi;

- O‘rganilayotgan hududdagi birinchi suv o‘zani, ya’ni Kosonsoy o‘zani shimoldan janubga qarab o‘rganilayotgan hudud bo‘yicha 750-870 gradus azimut bo‘yicha oqib boradi va Sirdaryoga quyiladi, o‘rganilayotgan hududdagi ikkinchi

suv o‘zani Janjalsoy o‘zanining asosiy qismi Shimoliy Farg‘ona kanali janubidan boshlanadi va 900 1000 azimuthda Sirdaryoga quyilib boradi;

- Tahlil natijalariga ko‘ra, Janjalsoy o‘zanining yuqori qismi (Shimoliy Farg‘ona kanali)dan shimolda joylashgan, deb hisoblanadigan qismi tabiiy oqim sifatida Kosonsoydan suv olish imkoniyati yo‘qligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, Kosonsoy va Janjalsoy oralig‘idagi hudud tarixan Kosonsoydan suv oluvchi irmoqlardan biri bo‘lgan Axsisoy orqali sug‘orilgan. Axsi va Fayzibod (Janjal) qishloqlarini tabiiy ravishda tarixan Janjalsoy obi hayoti bilan ta‘minlangan. 1940-yil mazkur hududdan Shimoliy Farg‘ona kanali qazib, ishga tushirilganidan keyingina bu qishloqlar kanaldan chiqarilgan ariqlar vositasida suv bilan ta‘minlangan [19].

Sun‘iy ixtiro qilinayotgan loyihalar ilmiy haqiqatlarga mutlaqo ziddir. Chunki, Axsi va Fayzobod qishloqlari bilan Kosonsoydan suv oladigan Axsi arig‘ini oradagi Janjalsoy ajratib turadi. Janjalsoyning chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘og‘iga suv tabiiy holatda bora olmasligi shundan ham ayonki, soyning boshlanish qismida qirg‘oqlarning suv sathidan balandligi 4-5, quyi oqimida esa 8-9, ba‘zan 15-20 metrni tashkil etadi. Soyning eni esa 5 metrdan 100 metrgacha kengayib boradi. Ikki qirg‘oq yonbag‘ridagi nishablikni hisobga olinsa, nomuvofiqlik yanada ortadi. Janjalsoy o‘zining quyilish nuqtasiga yaqinlashgani sayin balandlik ortib boradi. Binobarin, hatto endilikda ham Shimoliy Farg‘ona kanalini Janjalsoyning chap qirg‘og‘idan o‘ng qirg‘og‘i, ya‘ni Fayzobod qishlog‘i tomoniga olib o‘tish uchun sun‘iy ko‘tarma suv yo‘li – akveduk qurilgan. Bobur Axsiga suvning Kosonsoydan olib kelinganligini ta‘kidlagan. Demak, Axsi qal‘asining suv ta‘minoti Kosonsoy hisobidan bo‘lgan. Qamal onlarida strategik ahamiyat kasb etuvchi suv ta‘minoti omonat inshootga tayanib amalga oshirilmaydi. Aks holda, poytaxtning mudofaa imkoniyati ham shubha ostiga qoladi. Sababi, ko‘tarma suv yo‘lining buzilishi – bu poytaxtning taslim bo‘lishi, demakdir.

Bu “Boburnoma”da keltirilgan “Aksi suvi Kosondin kelur” iborasi faqatgina “Eski Aksi”ga to‘g‘ri kelishini, demakki, Bobur tasvirlagan Aksi hozirgi Axsikent yodgorligi o‘rnida bo‘lganligini tabiiy isbotlab turibdi.

Manbalar shaharni Chingizxon qo‘shinlari emas, 1621-yilgi kuchli zilziladan vayronaga uchraganligini to‘liq tasdiqlab turgan bo‘lsa-da biz o‘z tadqiqotlarimizda yordamchi tarix fanlarining, shuningdek, geologiya, gidrogeologiya, irrigatsiya, kadastr, seysmologiya sohasi mutaxassislarining ilmiy xulosalaridan ham foydalandik.

Xulosa qilib aytganda, ibn Xaldun “Tarixni tahlil qiladigan shaxs esa o‘tkir nigoh sohibi bo‘lishi, o‘ta aniq o‘lchovga va izlanishga ega chiqishi lozimdir” [7, b.78]., deb bejizga aytmagan edi. Shu bois, utopik “Yangi Aksi” shahrining suv deformatsiyasiga uchraganligi afsonasi va Axsikentning suv bilan ta‘minlanishi tarixiy haqiqatlariga mutaxassis irrigator olimlar ishtirokida yechim topish lozim topildi. Shuningdek, Qoraxoniylar davrida mavjud bo‘lgan Axsikent irrigatsiya tizimi, temuriylar davrida o‘zgarmaganligi, XX asrning 40-yillariga kelibgina hudud sug‘orish tizimlarida o‘zgarishlar yasalganligi isbotlandi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдулахатов Н., Тошқулов А., Қодиров В. Файзиобод фойзлари. Биринчи китоб. – Тошкент: Китобдорнашр, 2019.
2. Абдуллаев Р. XX асрнинг 40-70 йилларида Ахсикент атрофи ҳудудларининг ирригация системасидаги ўзгаришлар //“Бобур ва Ахсикент” мавзуида республика олимлари иштирокида ўтказилган VI-Республика илмий-амалий анжумани материаллари, Наманган 2025.
3. Абдурахмон ибн Муҳаммад ибн Халдун. Муқаддима. I жилд.- Тошкент: Trust and support, 2024.
4. Абулғозий Баҳодирхон. Шажарайи турк /Масъул муҳаррир ва сўзбоши муаллифи Б.А. Аҳмедов.-Тошкент: Чўлпон, 1992.

5. Бартольд В. В. Сочинения. Том III.-Москва: Восточная литература, 1965.
6. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1960.
7. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома.-Тошкент: Юлдузча, 1989.
8. Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард.-Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2011.
9. Ирригация Узбекистана. Современное состояние и перспективы развития ирригации в бассейне р.Сырдарьи. В 4-х томах. (Гл. Ред. А.Садыков). Т. 2.-Ташкент: Фан, 1975.
10. Истахрий. Китаб ал-масалик вал-мамалик (Хуросон ва Мовароуннахр) Йўллар ва мамлакатлар китоби (Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р.Т.Худайбергенов).-Тошкент: Фан, 2019.
11. Қозоқов Т. Ахсикентнинг мухтасар тарихи.-Тошкент: Фан зиёси, 2024.
12. Қосимов Й. Қадимги Фарғона сирлари.-Наманган: “Китобхон” жамияти, 1992.
13. Махмуд ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных. (Перевод Б.А.Ахмедова).-Ташкент: Фан, 1977.
14. Машрабов З., Матбобоев Б., Раҳмонов В. Бобур курдирган мақбара топилди //Андижоннома газетаси, 2018 йил 28 ноябрь.; Бобур курдирган мақбара топилди //Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2018 йил 7, 21 декабрь.
15. Нурматова Г. Средневековый Ахсикент (IX-XII вв.) //Номаи Донишгоҳ/Ученые записки Худжандского государственного университета им. академика Б. Гафурова. Серия: Гуманитарные науки. – 2010. – № 2 (22).

16. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиёлик географ ва сайёҳлар.-Тошкент: Ўзбекистон, 1964.
17. Чуланов Ю.Г. Городище Ахсыкет //Советская археология, 1963.- №3.
18. ترکستان ولایتی نینگ کزیتی ۴۸ نچی نومر ۱۹۱۳ یلده ۲۳ نچی ایونده
19. Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмаси архив фонди. II Фонд, 38-иш, 1-32 бетлар; 39-иш, 1-2 бетлар.
20. Ахсикент халқаро илмий тадқиқот жамоат бирлашмаси жорий архив фонди. II Фонд, 1-рўйхат, 38-иш, Б.23; 79-иш, Б.2.